# OLDI–SOTDI ShARTNOMASI

2022 y. «31» 3 2022-94-2-41-MT-son Shofirkon tuman

**"OLTIN TOLA ZAMINI" xususiy korxonasi** keyingi o'rinlarda "Sotuvchi" deb yuritiladi. O'zining nizomi asosida ish yurituvchi rahbari A.Raxmonov bir tomondan va Shofirkon tuman maktabgacha ta'lim bo'limi, keyingi o'rinlarda "Sotib oluvchi" deb yuritiladi, O'zining nizomi asosida ish yurituvchi rahbari R.Karimov ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

## 1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Sotuvchi o'ziga tegishli bo'lgan tovar(mahsulot)ni ushbu spesifikatsiyaga asosan Sotib oluvchiga mulk qilib topshirish, Sotib oluvchi esa tovar(mahsulot)ni qabul qilish va ushbu Shartnomada belgilangan muddatlarda to'lash majburiyatini oladi.

| № | Tovar (Mahsulot) nomi | O'lchov birligi | Soni | Narxi | Bahosi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | **Stol meditsinskiy**<br>Dlina, mm - 670 Shirina, mm - 460 Vыsota, mm - 815 Gabaritnыe razmerы paneli, mm - 580x420 Kolichestvo paneley, sht. - 2 Massa, kg -<br>ne bolee 16 Dopuskaemaya nagruzka, kg - ne bolee 25 | Dona | 1 | 440000 | 440000 |
| 2 | **Nabor ofisnoy mebeli**<br>Stol odno tumbovыy Dlina 1200mm, Shirina 600mm, Vыsota 760mm. - 1sht, Stul polumyagkiy- Vыsota ot pola do osnovaniya sidenya 460mm, vыsota spinki ne menee 320mm, shirina sidenya ne menee 430mm, glubina 400mm.- 4 sht, Doska (magnitnaya) peredvijnaya -Razmerы: 120*90 sm (dlina x vыsota).-1 sht,Stol odno tumbovыy Dlina 1200mm, Shirina 600mm, Vыsota 760mm.-1 sht, Stul polumyagkiy Vыsota ot pola do osnovaniya sidenya 460mm, vыsota spinki ne menee 320mm, shirina sidenya ne menee 430mm, glubina 400mm.-1 sht, Shkaf dlyaknig (dokumentov)-Vыsota 1734mm,Shirina 800mm,Glubina 370mm-1 sht, Stol odno tumbovыy-Dlina 1200 mm, Shirina 600mm, Vыsota 760 mm.-1sht, Stul polumyagkiy-Vыsota ot pola do osnovaniya sidenya 460 mm, vыsota spinki ne menee 320 mm, shirina sidenya ne menee 430mm, glubina 400mm.-1 sht, Shkaf dlya knig (dokumentov)-Vыsota 1734mm,Shirina 800mm,Glubina 370mm-1 sht, Shkaf dlya belya-Vыsota 1700 mm, Shirina 850 mm, G lubina 470 mm,- 1 sht, Gladilnaya stol-1 sht, Stol odno tumbovыy--1 sht,Stul polumyagkiy 1sht, Knijnыy shkaf-1 sht | Dona | 1 | 7726000 | 7726000 |
| 3 | **Nabor ofisnoy mebeli**<br>Stol odno tumbovыy-Dlina 1200mm, Shirina 600mm, Vыsota 760mm.- 4 sht, Stul polumyagkiy-Vыsota ot pola do osnovaniya sidenya 460mm, vыsota spinki ne menee 320mm, shirina sidenya ne menee 430mm, glubina 400mm.- 4 sht. Shkaf dlya belya-Vыsota 1700 mm, Shirina 850 mm, Glubina 470 mm,- 4 sht, Shkaf dlya knig (dokumentov)-Vыsota 1734 mm, Shirina 800mm,Glubina 370mm –<br>1 sht, Stol odno tumbovыy Dlina 1200mm, Shirina 600mm, Vыsota 760mm.-1 sht, Stul polumyagkiy-Vыsota ot pola do osnovaniya sidenya 460mm, vыsota spinki ne menee 320mm, shirina sidenya ne menee 430mm, glubina 400mm.-15 sht.-Stol odno tumbovie s pristavkoy (Nabor ofisnoy mebeli) Stol rukovoditelya Dlina 1500 mm, glubina 700, vыsota 7600 mm. Stol pristavka dlina 900 mm, glubina 600, vыsota 730mm. Shkaf dlya odejdы dlina 600 mm, glubina 380 mm, vыsota 1946 mm. Shkaf dlya dokumentov dlina800 mm, lubina 370 mm, vыsota | dona | 1 | 14042000 | 14042000 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | 1826mm -1 sht, Stul polumyagkiy-Vысota ot pola do osnovaniya sidenya 460mm, vысota spinki ne menee 320mm, shirina sidenya 430mm, glubina 400mm.-7 sht | | | | |
| 4 | **Kuxonnaya mebel (detskaya)**<br>Stellaj dlya posudы-dlina -1000 mm shirina-400 mm vысota1750 mm vысota nijney polki ot pola 500 mm- 4 sht, Stol obedennыy, shestimestnыy №1 v komplekte so stulyami №1 (stol-1, stul-6)-Stol obedennыy dlina 1200 mm, shirina 600 mm vысota rabochey ploskosti 460mm, rasstoyanie ot pola do nijney kromki vыstupayuщey konstruksii pod krыshkoy stola ne menee 350 mm. Stul №1- 15 sht, Shkaf (stellaj) dlya xraneniya xleba-Gabaritы – dlina 1000x416x1740 mm- 1 sht ,Stol proizvodstvennыy -Dlina 1200.0 (mm) Shirina 800.0 (mm) Vысota 860.0 (mm) Vысota nijney polka 400 mm ot pola.- 4 sht, Stellaj dlya posudы-dlina -1000 mm shirina-400 mm vысota1750 mm vысota nijney polki ot pola 500 mm –<br>1 sht, Stol proizvodstvennыy-Dlina 1200.0 (mm) Shirina 800.0 (mm) Vысota860.0 (mm) Vысota nijney polka 400 mm ot pola.--1sht, Stellaj dlya xraneniya posudы (produktov)-vысota 1200 mm.shirina 600 mm. dlina1600mm Maksimalnaya nagruzka na polku 50 kg- 2 sht | Dona | 1 | 25000000 | 25000000 |
| 5 | **Nabor detskoy mebeli**<br>Bolalar mebellari tuplami - komplekt xisobida Detskiy stol chetыryoxmestnыy №1* v komplekte s detskimi stulyami №1*(stol – 1 sht., stul – 4 sht, Stol №2 Dlina stola (2) 700 mm. Shirina krыshki stola, b, 700 mm. Vысota rabochey ploskosti D 520 mm--28 komp, Shkaf dlya didakticheskix igr, posobiy po raznыm vidam deyatelnosti i igrushek.-Vысota- 900 mm Dlina - 1300 mm Glubina - 300 mm- 4 sht, Detskaya doshkolnaya krovat, skladiruemaya po vысote-Dlina ne<br>menee 1430 mm, shirina ne menee 634 mm, vысota 280 mm-120 sht, Shkaf dlya didakticheskix igr, posobiy po raznыm vidam deyatelnosti i igrushek.Vысota- 900 mm Dlina - 1300 mm Glubina - 300 mm-1 sht, Detskiy stol dvux mestnыy №1* v komplekte s detskimi stulyami №1* (stol - 1 sht., stul - 2 sht.) *rostovoy nomer - Stol №1 Dlina stola (l) 1200 mm. dlinnaya Shirina krыshki stola, b, 450 mm Vысota. Rabochey ploskostiD 460 mm- 1-komp, Detskaya skameyka-Dlina 1050 mm. Shirina 500 mm. Vысota 200 mm.-2 sht, Rostomer—1 sht | dona | 1 | 94702000 | 94702000 |
| 6 | **Nabor detskoy mebeli**<br>Bolalar mebellari tuplami - komplekt xisobida Detskiy shkaf dlya odejdы pyatiseksionnыy- 12 sht, Rasstoyanie dna shkafa ot pola – ne menee 100 mm. Vысota 150 mm Dlina - ne menee 1366 mm G lubina – ne menee 344 mm Vысota - ne menee 1228 mm, Detskaya skameyka Dlina 1050 mm. Shirina 500 mm. Vысota 200 mm.- 8 sht, Veshalka (stellaj) dlya detey dlya verxney odejdы i smennoy obuvi- 280 mm x300 mm x1200 mm-4 sht, Shkaf dlya didakticheskix igr, posobiy po raznыm vidam deyatelnosti i igrushek.- Vысota- 900 mm Dlina - 1300 mm Glubina - 300 mm-4 komp, Shkaf dlya didakticheskix igr, posobiy po raznыm vidam deyatelnosti i igrushek.--Vысota- 900 mm Dlina - 1300 mm Glubina - 300 mm- 4 komp, Shkaf dlya didakticheskix igr, posobiy po raznыm vidam deyatelnosti i igrushek.--Vысota- 900 mm<br>Dlina - 1300 mm Glubina - 300 mm- 4 komp, Shkaf dlya didakticheskix igr, posobiy po raznыm vidam deyatelnosti i igrushek.--Vысota- 900 mm Dlina - 1300 mm Glubina - 300 mm-4 komp, | dona | 1 | 25600000 | 25600000 |
| 7 | **Kushetka meditsinskaya**<br>Vысota H=570 mm. Ves kushetki — 18 kg. Razbornaya, metallicheskaya model. Dlina podgolovnika 450 mm. Postavlyaetsya v razobrannom vide. V rabochem sostoyanii: (mm) dlina (s podgolovnikom) — 1500 shirina — 610 vысota — 570 dlina podgolovnika 450 mm | dona | 1 | 460000 | 460000 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 8 | **Shkaf meditsinskiy**<br>Shkaf meditsinskiy-Высота 1734mm Shirina 800mm Glubina 420mm-1 sht, | dona | 1 | 890000 | 890000 |
| | **Jami** | | | | **168 860 000** |

## 2. TO'LOV ShARTLARI

2.1. Ushbu shartnomaning umumiy summasi 168 860 000 (Bir yuz oltmish sakkiz million sakkiz yuz *oltmish ming) so'mni tashkil etadi.*

2.2. Sotib olinadigan Tovar (mahsulot) uchun oldindan to'lov miqdori 50 658 000 sumni, ya'ni, belgilangan summaning 30 foizini tashkil qiladi va bu oldindan to'lov shartnoma imzolangandan keyin 5 bank ish kuni ichida amalga oshiriladi. Yakuniy to'lovning miqdori esa 118 202 000 so'mni, ya'ni, kelishilgan summaning 70 foizini tashkil etadi va bu yakuniy to'lov hisob-faktura (yoki ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat) taqdim qilingandan so'ng ushbu shartnoma amal qilish muddati tugaguncha amalga oshiriladi.

2.3. To'lov shakli naqd pulsiz pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

## 3. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. **Sotuvchining majburiyatlari**:

3.1.1. Tovar (mahsulot)ni davlat standartlariga muvofiq javob beradigan holatda Sotib oluvchiga o'z vaqtida topshirish.

3.1.2. Tovar (mahsulot)larning sifati ushbu guruhi uchun amaldagi davlat standartlarga muvofiq kelishi kerak.

3.1.3. Sotuvchi to'plamda yaroqsiz, sifati lozim darajada bo'lmagan tovarlar (mahsulot) mavjudligi haqida xabar olgan paytdan boshlab 3 kun ichida sifatsiz tovar (mahsulot)ni sifatlisiga almashtirish yoki sifati lozim darajada bo'lmagan tovarning pulini qaytarib beradi.

3.1.4. Transport xarajatlarini o'z hisobidan to'laydi.

3.1.5. Sotuvchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tovar (mahsulot)ga bo'lgan kafolat muddatlarini taqdim etadi.

3.2. **Sotib oluvchining majburiyatlari**:

3.2.1. Qabul qilish dalolatnomasini rasmiylashtirgan holda ushbu shartnoma va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatda tovarni miqdori, sifati va butlanishi bo'yicha qabul qilib oladi.

3.2.2. Sifati lozim darajada bo'lmagan tovar keltirilganligi aniqlangan taqdirda, ushbu tovarning sifati lozim darajada emasligi haqida dalolatnoma rasmiylashtirilgan paytdan boshlab 3 kun ichida sotuvchini xabardor qiladi.

3.2.3. Shartnomada belgilangan miqdorda, tartibda va muddatda tovar haqini to'lash.

## 4. SHARTNOMAGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH

4.1. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish qonunchilikda belgilangan tartibda tomonlarning roziligiga ko'ra amalga oshiriladi.

4.2. Tomonlarning shartnoma shartlariga kiritgan qo'shimcha va o'zgartirishlari uning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi, ular albatta inobatga olinishi zarur.

## 5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Tovarni topshirish muddatini buzganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi va quyidagi miqdorda jarima to'laydi:

5.2. Tovarni to'liq topshirmaganlik uchun Sotuvchi har bir kechiktirilgan kuniga topshirilmagan tovar qiymatining 0,5 % miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

5.3. Sifati bo'yicha shartnoma shartlariga javob bermaydigan tovarni topshirganlik uchun aybdor taraf tovar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi:

5.5. Tovar haqini o'z vaqtida yoki to'liq to'lamaganlik uchun Sotib oluvchi har bir kechiktirilgan kuniga to'lanmagan summaning 0,4 % miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lov summasining 50 % dan oshmaydigan miqdorda o'zining maxsus hisob raqamidan penya to'laydi. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini

buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

## 6. SHARTNOMANING QONUNIY KUCHGA KIRISHI VA AMAL QILISH MUDDATI

6.1. Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi "Budjet kodeksi"ning 122-moddasiga asosan budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning budjetdan ajratiladigan mablag'lar bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalari, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar ular g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin kuchga kiradi hamda 2022 yil «31» dekabrgacha amalda bo'ladi.

6.2. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilib, bir xil yuridik kuchga ega bo'lib hisoblanadi va tomonlarning har biri uchun bir nusxadan beriladi.

## 7. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SHARTLARI

7.1. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan quyidagilarni kafolatlaydi:

- qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini;
- shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini;
- moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz olinmaganligini.

7.2. Taraflar ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

7.3. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar yuqoridagi majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydi.

7.4. Shartnomaning tarafi va u tomonidan jalb qilingan shaxslar (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarga rioya etilmaganda, ikkinchi taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni qoplab berishni talab qilishga haqli bo'ladi.

## 8. NIZOLARNI HAL QILISH

8.1. Taraflar shartnomada ko'rsatilgan majburiyat va shartlarni bajarmagan taqdirlarida O'z.R. Fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni hamda boshqa qonun hujjatlari asosida javobgar bo'ladilar.

8.2. Taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar o'zaro kelishuv asosida, agar taraflar kelisha olmasalar nizolar O'z.R. "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunga va Fuqarolik kodeksiga asosan iqtisodiy sud tartibida hal qilinadi.

## 9. TOMONLARNING YURIDIK MANZILI VA REKVIZITLARI:

| **«Ijrochi»** | **«Buyurtmachi»** |
|---|---|
| **"OLTIN TOLA ZAMINI" xususiy korxonasi** | **Shofirkon tuman maktabgacha ta'lim bo'limi** |
| (Tovar yetkazib beruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchining nomi) | (budjetdan mablag' oluvchi tashkilotning nomi) |
| Manzil: G'ijduvon tuman Buktaroy QFY | Manzil: Shofirkon t 1- Sentabr ko'chasi 18-uy |
| Tel./faks | Tel./faks 65 502 38 80 |
| (h/r yoki shgx) 20208000904384108001 | Shgx: 401422860062587098602251002 |
| Bank nomi TIF Milliy bank G'ijduvon filiali | budjetdan mablag' oluvchi STIRi 207266631 |
| MFO 00849 | IFUT 85100 |

.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, ҳужжат коди: JW11123280

IFUT
STIR 205344963

Rahbar ____________________ A.Raxmonov
(imzo) (F.I.Sh)

G'aznachilik bo'linmasi nomi: Shofirkon tumani buyicha G'aznachilik bo'linmasi
Yagona g'azna h/v: 23402000300100001010
Bankning nomi: Markaziy bank Toshkent shahar (XKKM)
MFO: 00014
G'aznachilik bo'linmasi STIRI: 201122919

Rahbar R.Karimov

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA

## YURIDIK XULOSA

1.Loyihaning turi: Shartnoma.

2.Loyihaning nomi: Oldi-sotdi shartnomasi.

Shofirkon tuman maktabgacha ta'lim bo'limi hamda "OLTIN TOLA ZAMINI" xususiy korxonasi o'rtasida tuzilgan oldi-sotdi shartnomasi.

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Shofirkon tuman maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan 2022-yil 31-mart sanasida ishlab chiqilgan va markazga yuridik xulosa uchun taqdim etilgan.

Loyiha tuman maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan taqdim etilgan ilova hujjatlar asosida ko'rib chiqildi.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

**Markaz bosh yuriskonsulti** **B.Saidov**